

**O'ZBEK MILLIY CHOLG'ULARIDAN NAY CHOLG'USINING
KELIB CHIQISH TARIXI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Fazliddinov Zokir

Tel: +998977627374

Annotatsiya: O'zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg'ularining 30tadan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdagi musiqiy cholg'ular XX asrning 40-yillaridan keyinproq professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar va soz ustalari bilan hamkorlikda takomillashtirilgan musiqiy cholg'ular bo'lib, konsert sahnalarida yakka navozlik sifatida, shu bilan birga, asosan orkestr va ko'p ovozli ansamblalarda foydalanish uchun mo'ljallangandir. Ushbu maqolada Shunday cholg'ulardan biri Nay tarixi xaqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ansambl, O'rta Osiyo, Nay, Cholg'u, Sozandalar, O'zbekistonda, fleyta, Afrosiyob.

Ansamblidagi o'zbek milliy cholg'ular tarixi Nay - qadimdan O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekiston musiqa madaniyatida sevimli cholg'u sifatida qo'llanilib kelinmoqda. Nayning yaralishiga doir bir rivoyatda aytilishicha: Inson paydo bo'lgandan keyin yerda o'sib turgan qamishni qirqib olib, undan teshiklar ochib, nay yasaydi va chala boshlaydi. Nayning ohangiga mahliyo bo'lgan yer yuzidagi barcha jonzot tirikchilik tashvishini unutib (sher kiyik bilan, bo'ri qo'y bilan, tulki tovuq bilan va h.k.) hech narsaga parvo qilmasdan ijrochining izidan ergashib ketaverishibdi. Buni kuzatib turgan Allohu-ta'lo yerdagi muvozanatni buzilganini ko'rib insonning qo'lidan nayni oladi va undagi mahliyo qiluvchi shirani chiqarib tashlaydi va nayni qaytarib beradi. Hozirgina uning maftunkor ovozi o'shashirasi so'rib olingandan keyingi holati bo'lsa undan oldingisining ta'rifiga so'z ojizd ir.



Amir Xusrav Dehlaviy asarlari uchun Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan miniatyuralarda ikki naychi va doyrachi tasvirlangan bo'lib, bu yerda nay ichaksimon (trubka) shaklida bo'lgan. Uning yuqori qismini sozanda lablariga tekizib pastki qismini pastga tushirib chalgan. Cholg'uning hajmi va qo'lda ushlanishiga qarab bu , musiqachilari chaladigan qadimiy uzunroq fleytalar avlodi ekanini ko'rish mumkin.

O'rta asr miniatyurachilari bu cholg'ularning chalinish uslubini barmoqlar joylashishiga qarab belgilashgan va miniatyuralarga qarab shuni aniqlash mumkinki, bu bir nechta (balki oltitadir) teshikchalar ichaksimon naychaning xuddi zamonaviy fleyta singari pastki qismida bo'lgan.

Ibtidoiy jamiyatda xalq turmushi, mehnat jarayonlarida "Navro'z" tantanalarida nay va boshqa cholg'ularda kuylar ijro etilgan. Moddiy madaniyat yodgorliklari, tasviriy san'at asarlari, jumladan devordagi rasmlar, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asridayoq ikki turdagi xalq cholg'ulari ansambli mavjudligidan, ulardan biri damli va urma zarbli cholg'ulardan iborat bo'lganligi hamda nay, surnay va boshqa cholg'ularda yakkanavoz ijrochilik ham mavjud ekanligi haqida ma'lumot beradi."Shohnoma" asarida ham chang, doyra va naydan iborat bo'lgan ansambli fodalangan.

Nay ansamblda ohangni boshlovchi sifatida aks ettirilgan. Forobiyning "Musiqqa haqida katta kitobi"- ning ikki qismi o'sha davr cholg'ulariga bag'ishlangan, ular ichida nay ham ta'riflanadi. Cholg'u uzunligi 450-520 mm.li bo'lib, unda oltita ijro teshikchalari hamda nafas yuboriladigan bitta teshik mavjud.

Nay cholg'usi ko'p asrlik taraqqiyot davomida o'ziga xos tuzilishi tufayli an'anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi. Nay silindr shaklida yumaloq ichi g'ovak bo'lib, diametri 20-30 mm, uzunligi 450-520 mm.li bo'lib, unda oltita ijro teshikchalari hamda nafas yuboriladigan bitta teshik mavjud.



Nayda asosan 7 ta teshikbo'lib, ulardan bosh qismidagi 1 ta alohida teshik puflash "Labium" uchun, qolgan 6 tasi esa barmoqlar bilan bosib tovush chiqarish uchun qo'llaniladi. Nayning tovush qatori diatonik bo'lib, 2,5 oktava (1-oktava lyadan 4-oktava re) gacha tovush ko'lamiga ega. 2-oktava lya tovushidan yuqori pardalar nafas bosimini kuchaytirish yo'li bilan hosil qilinadi. Sozandalar ijro davomida va ayniqsa yuqori tovushlarni hosil qilganda murakkab (asosiy pardalarda o'rta barmoqlarni ochgan holda "vilochniy") applikaturani qo'llaydilar.

Nay teshiklarini yarim ochgan holda esa xromatik tovush qator hosil qilish mumkin. Shuningdek, nayning puflanadigan teshigiga ijrochi labini pastroq yoki yuqoriq o'yishi natijasida tovushni yarim pardaga farq qildirish mumkin. Sozning balandligi nayning yuqori qismi ichkarisida joylashgan tiqin (probka) va harakatlantiruvchi golovka bilan tartibga solib turiladi. Golovka yoki probkani siljitish bilan havo to'lqinini ko'paytirish va shu bilan birga, tovushni pasaytirish va kuchaytirish mumkin.

Nayda ijro etish uchun o'ng va chap qo'llarning uchtdan barmoqlari ishlatiladi. Nayda ijro etganda uning puflab chalinadigan teshigini pastki labga shunday qo'yish kerakki, lab faqat teshikning chetigagina tegib turishi va uning to'rtidan bir qismini berkitishi lozim. Naychining qo'li barmoqlarning erkin ishlay olishi uchun sharoit yaratgan holatda bo'lishi lozim. Bosh va gavdani, ya'ni qomatni to'g'ri tutish zarur. Tirsaklar yengil ko'tarilgan, yelkalar kerilgan holda bo'lishi kerak. Ko'krak qafasining erkin bo'lishi esa yengil nafas olishni ta'minlaydi. Bular esa



talabalarning muvaffaqiyatli bilim olishlarida va o'zlarining sog'liklarini mustahkamlashda zaruriy sharoitlardan biri hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Axmedov "Ansaml (turlaribo'yicha)" Toshkent: 2023.
- 2.O'.Mirzayev - "Cholg'u ijrochiligi va ansaml". N., "Tahrir" 2019
- 3.R.Qodirov - "Musiqapedagogikasi". T.: 2013
- 4.O.Toshmatova. Xalq cholg'ulari antologiyasi. T., "Musiqqa" 2014
- 5.A.Fitrat - "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" T., "Fan" 1993
6. .A.Mamadaliyev - "Ansaml sinfi". T., "Musiqqa" 2020